

**MUSTAQILLIK YILLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI
KATTA YOSHDAGI GURUH BOLALARIDA EKOLOGIK
TUSHUNCHALARINI SHAKILLANTIRISH MAZMUNI**

*Mamajonova Nozilaxon Abdullajon qizi
Qo'qon universiteti 2-kurs magistranti*

Annotatsiya

Ushbu maqola ekologik ta'larning bolalar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqlada ekologik tushunchalar, tabiatni muhofaza qilish, ekologik ongi shakllantirish metodlari va bolalarda ekologik mas'uliyatni rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalarda ekologik bilimlarni shakllantirish jarayonida tarbiyachilarning metodik yondashuvlari, ekologik faoliyatning tarbiyaviy ahamiyati va ekologik etikaning roli keltirilgan. Maqola ekologik ta'lim va tarbiya orqali bolalarning tabiatga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatini rivojlantirishning zarurligini ta'kidlaydi. Ekologik ta'larning muvaffaqiyatli tashkil etilishi nafaqat ilmiy, balki axloqiy va estetik jihatlarni ham o'z ichiga oladi, bu esa bolalarni tabiatni asrab-avaylashga, uning resurslaridan oqilona foydalanishga undaydi.

Kalit so'zlar. ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, barqaror rivojlanish, ekologik ong, tabiatni muhofaza qilish, chiqindilarni qayta ishslash, ekologik muvozanat, iqlim o'zgarishi, yashil texnologiyalar, biologik xilma-xillik.

KIRISH. So'ngi yillarda dunyo miqyosida ekologik muammolar, tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o'zgarishi va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa salbiy omillar kuchayib borayotganligi sir emas. Ko'plab davlatlar va jahon miqyosida ekologik inqirozlar va tabiatning barqarorligini ta'minlash masalalari global muammolarga aylanmoqda. Bu holatlar atrof-muhitni saqlash va tabiatni muhofaza qilish borasida ijtimoiy ongi shakllantirish zaruratini oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida katta yoshdagi bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirish ekologik mas'uliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologik tarbiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2017 yil 18 aprel) mamlakatda ekologik tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan muhim hujjat bo'lib, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ekologik ongi shakllantirishga e'tibor qaratadi. Ushbu qaror ekologik ta'limga kuchaytirish, ekologik bilimlarni bolalarga erkin va o'zlashtiradigan tarzda berish hamda tabiatga bo'lgan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishni taqozo etadi. Mazkur qaror, maktabgacha ta'limda ekologik tushunchalarni bolalar ongida shakllantirishni zaruriy yo'nalish sifatida

belgilaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik bilimlarni berish orqali, ularni atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli, ongli va tabiiy resurslarni asrashga bo’lgan hurmatini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda pedagoglar ekologik tarbiyaning barcha jihatlarini e’tiborga olib, bolalar bilan ishlashda samarali metod va texnikalardan foydalanishlari lozim.

ADABIYOTLAT TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida katta yoshdagi guruh bolalarida ekologik tushunchalarni shakllantirishga oid dastlabki tadqiqotlarda ekologik tarbiyaning rivojlanishi va uning metodik asoslari alohida o‘rin tutadi. Xususan, ekologik tarbiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar ichida Рахимкулова М.Б.. Расулова М., Абдуллаева Д., Охунжонова С. kabi ilmiy tadqiqotlari ekologik tushunchalarni shakllantirish va ekologik ongni rivojlanirishda muhim ilmiy asoslarni taqdim etadi. Ushbu tadqiqotlarda bolalar tarbiyasida ekologik tushunchalar va uning shakllanishiga e’tibor qaratilgan. Yuqoridaq tadqiqotlar ekologik tarbiyaning turlari, metodikasi va pedagogik yondashuvlarini tahlil qilishda ahamiyatli bo’lgan bo‘lsa, maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslari faqatgina ma’lum tadqiqotlarda keng yoritilgan. Mazkur sohada ekologik tarbiyaning metodik va psixologik jihatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik tushunchalarni shakllantirish, ayniqsa, tabiiy resurslarga bo’lgan hurmatni, atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatni va ekologik ongni rivojlanirish maqsadida zaruriy pedagogik usullarni belgilashda alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiy, tizimlashtirish, xronologik va qiyosiy tahlil kabi metodlaridan foydalanildi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik tushunchalarni shakllantirish jarayonida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar, arxiv materiallari va tajribalar nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan. Tadqiqotlarda foydalanilgan manbalardan olingan ma’lumotlar ekologik tushunchalarni shakllantirishda xolisona yondashuvni ta’minlashni talab etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Respublika Birinchi Prezidenti I.A. Karimov, mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, aholi e’tiborini tabiatni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni samarali amalga oshirishni davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri deb e’tirof etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, tabiatni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni samarali amalga oshirishni davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri deb e’tirof etgan. Ayniqsa, 2017-yil 9-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan “Ekologik xavfsizlikni ta’minlash va tabiiy resurslardan

foydalanishni samarali boshqarish” to‘g‘risidagi qaror, davlatimizning ekologik barqarorlikni ta‘minlashga bo‘lgan jiddiy yondashuvini ifodalaydi. Mazkur yil nomini “ Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili “deb e’lon qi;inganligi ham gapimizning yaqqol istobi bo‘la oladi. Bugungi kunda, bu dolzarb masalani ijobiy hal qilishda aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ekologik ta’lim-tarbiyani olib borish, uning samaradorligini ta‘minlash va yoshlar ongida ekologik madaniyatni shakllantirish asosiy vazifalardan biriga aylangan. Bu masala zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyotida hal etilishi zarur bo‘lgan muhim muammolar qatorida turadi. Mazkur masalaning ilmiy nuqtai nazardan to‘g‘ri hal etilishi, birinchi navbatda, maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga bo‘lgan muhabbatni oshirishga, ikkinchidan, ularning tabiat haqidagi bilimlarini kengaytirishga, eng muhimi esa, bolalarni tabiat olami bilan tanishtirishga yordam beradi. Ekologik muammolarni ilmiy jihatdan hal etish, inson salomatligiga zarar yetkazmaydigan usullarni ishlab chiqish, hozirgi kunda ilm-fan va texnika rivojlanishining ajralmas yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, tabiatni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni samarali amalgamashni davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri deb e’tirof etgan. Ayniqsa, 2017-yil 9-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan “Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va tabiiy resurslardan foydalanishni samarali boshqarish” to‘g‘risidagi qaror, davlatimizning ekologik barqarorlikni ta‘minlashga bo‘lgan jiddiy yondashuvini ifodalaydi. Ekologik tushunchalarni shakllantirishda davlatimizning asosiy huquqiy negizi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalaridagi ekologik normativ me’yorlar muhim ahamiyatga ega. ularning aholi ongiga singdirilishi, ekologik immunitetni shakllantirish, iroda, burch, vijdon va mas’uliyat hissini mustahkamlash, shuningdek, tabiatga bo‘lgan qiziqish, uning saqlanishiga intilish kabi tuyg‘ularning rivojlanishi ekologik madaniyatning shakllanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, ekologik tushunchalar har bir yosh guruhining umumiy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida o‘ziga xos uslub va metodlarni talab qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta yoshdagagi guruh bolalarida ekologik tushunchalarni shakllantirish tarbiyaviy jarayonning asosiy poydevorini tashkil etadi. Chunki katta yoshdagagi bolalarda ekologik ong, his-tuyg‘u va bilimlar shakllanayotgan davrda, bu tushunchalar bolalar faoliyatining, ularning tengdoshlar va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarining asosini tashkil etadi. Ekologik tarbiyaning samarali olib borilishi bolalarning tabiatni sevish, unga nisbatan mas’uliyat hissini rivojlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, inson hayoti uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar tabiatda mavjuddir. Shuning uchun ham bolaning shaxsiy rivojlanish davrida uning taraqqiyoti to‘g‘ridan-to‘g‘ri tabiat bilan bog‘liqdir. Tabiyatni asrash, uni muhofaza qilish va tejash inson ehtiyojlarini qondirishda muhim

ahamiyatga ega. Bunda jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa yoshlar, Vatanning ekologik xavfsizligini ta'minlash va uning kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishlari kerak. Tabiyat va inson o'rtasidagi ekologik muammo har doim dolzarb bo'lib qolmoqda, chunki bu masala barcha jamiyat a'zolari uchun ham farz, ham qarzdur.

Maktabgacha ta'lif yoshi — bu shaxsning dastlabki shakllanish davridir. Olti yoshda bolaning shaxsiy rivojlanish yo'nalishi, ayniqsa uning axloqiy rivojlanish darajasi aniq kuzatiladi. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida katta yoshdagi guruh bolalarida ekologik tushunchalarni shakllantirish ikki tomonlama jarayon sifatida qaraladi. Bir tomondan, bu jarayon bolalarga kattalar — ota-onalar va tarbiyachilarning faol ta'siri orqali amalga oshadi, ikkinchi tomondan esa, tarbiyalanayotgan bolalarning faoliyati (ularning harakatlari, his-tuyg'ulari va munosabatlari orqali) muhim rol o'ynaydi. Ekologik tushunchalarni shakllantirish prinsip va qoidalari axloqiylikni shakllantirishning asosini tashkil etadi. Bu normativ qoidalari odamlarning harakatlarida, xulq-atvorida namoyon bo'lib, axloqiy munosabatlarning rivojlanishiga olib keladi. Vatanga bo'lgan muhabbat, jamiyatning baxt-saodati uchun fidokorona mehnat qilish, o'zaro yordam va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish kabi ekologik tushunchalar bolaning ongida, his-tuyg'ularida va xulq-atvorida shakllanadi. Bu jarayonning ildizi bevosita maktabgacha ta'lif tashkilotlari bilan bog'liqdir. Bolaning ekologik jihatdan rivojlanishida jamiyat hayoti jarayonida shakllanib, avloddan-avlodga o'tib boradigan, suvni, tabiatni asrash kabi insoniy qadriyatlarni o'zlashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Demak, ekologik tushunchalarning har bir bolaning ongiga singib borishi uchun maktabgacha ta'lif tashkilotlarida har bir mashg'ulot jarayonida uzuksiz amalga oshirilishi zarur. 5-6 yoshli bolalar ekologik tasavvurlar va tushunchalar mazmunini yaxlit holda idrok etish, eslab qolish hamda bu tushunchalar bo'yicha fikr va mulohazalar yuritishda individual yondashuvni talab qiladi. Tabiyat hodisalarini, voqealarini bevosita tasvirlab aks ettirgan rasmlar, o'yinchoqlar, ekologik mavzudagi o'yinlar, ob-havoni kuzatish va tabiatda sayohatlar kabi shakllarda ekologik tushunchalarni shakllantirish mumkin. Ekologik tushunchalarni shakllantirish jarayonida tabiat va inson o'rtasidagi aloqani ilmiy jihatdan izohlovchi bilimlar orqali tegishli ko'nikma va malakalar izchil ravishda shakllantiriladi. Bu jarayon teatrlashtirilgan sahnalar, ekologik didaktik o'yinlar, badiiy kechalar, ekologik rebuslar, ekologik belgilar, ekologiya bo'yicha maqolalar, topishmoqlar, hadisalar, xalq ijodi, urf-odatlar, bahs-munozaralar, ertaklar, she'rlar va rivoyatlardan foydalanish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, "O'zbekiston menin Vatanim", "Daraxt ekib bog' yarat", "Tabiat menin Vatanim", "Yaxshidan bog' qoladi", "Jonajon ulkam tabiatim", "Sen tabiatni qanday sevasan", "Tabiat menin rizq-ruzim", "Tabiat menin borlig'im", "Jippi ekologlar", "Shahrimizdag'i ekologik muammolar" kabi mavzularda tashkil etilgan tarbiyaviy tadbirlar bolalarda ekologik tushunchalarni rivojlantirishga mustahkam zamin yaratadi. Bolaning

ekologik tushunchalarini shakllantirishda suhbatlar, mashg‘ulotlar, turli didaktik o‘yinlar va ko‘ngilochar kechalar tashkil etish ularda tabiat boyliklarini asrabavaylash, ekologik ongni rivojlantirish va tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda ekologik tushunchalarni shakllantirish jarayonlari oila muhiti, ijtimoiy muhit, irsiy omillar, biologik omillar, tarixiy an’analar, milliy g‘oya va mafkura, ta’lim-tarbiya, olimlarning fikr-mulohazalari, bolalarning yosh xususiyatlari, tarixiy davrlar asosiy o‘rin egallaydi.

Bolalarda o‘simliklar va hayvonlar haqida, tabiatdagi mavjud resurslarning inson uchun ahamiyatini anglash, ular uchun ekologik tushunchalarni shakllantirish hamda bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, 5-6 yoshli bolalarda ekologik tushunchalarni o‘yinchoqlar, rasmlar, tabiat manzaralari, ob-havoni kuzatish, rasmlar chizish va ekologik mazmundagi didaktik tadbirlar orqali izchil shakllantirish zarur. Ushbu yoshdagi bolalar uchun xalq ertaklari, qo‘shiqlari, ekologiyaga oid maqollar yordamida ekologik tushunchalarni shakllantirish samarali natijalar berishi mumkin. Shuningdek, davlatimizning ramzi bo‘lgan gerb, bayroq va ularning mazmunida aks etgan ranglar, buyoqlar, qushlar, yulduzlar va oy tasvirlari bolalarda ona vatanga, tabiat go‘zalligiga, koinot jismlari bilan inson o‘rtasidagi aloqadorlikning mohiyatini anglash, hodisa va tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, tabiatda mavjud bo‘lgan ob’ektlar va tabiiy resurslar bilan bog‘liq kommunikatsiya va ekologik me’yorlarni bolalar ruhida ekologik immunitetni shakllantiradi. Darhaqiqat, bolalar avvalo maktabgacha ta’lim muassasalarida tabiat haqida boshlang‘ich bilimlarni olishadi. Bolalarda Vatanga, uning jonajon tabiatiga faol munosabatni rivojlantirish, tabiat haqida aniq tasavvur va tushunchalarga ega bo‘lish maktabgacha ta’lim muassasasining 5-6 yoshli katta guruh bolalarida alohida ahamiyat kasb etadi. “Orolni qaytarish mumkinmi?”, “Suv – hayot manbai”, “Sog‘lom muhit – sog‘lom avlodni tarbiyalaydi”, “Ekologik madaniyat – jahon madaniyati va ekologik xavfsizlikni ta’minalash omili”, “Inson salomatligiga nima xavf soladi?”, “Go‘zal diyorimizni yana-da go‘zallashtiraylik”, “Atrof-muhit va bolalar”, “Salomatlikni saqlash sirlari”, “Yurtimizni yana-da go‘zal qilamiz”, “Salomatlik – bu sizning kulgingizda”, “Tabiat – mening sevimli joyim” kabi mavzularda tadbirlar tashkil etish, shuningdek “Jonajon ulkamiz rassomlar nazarida”, “Rassom va atrof-muhit” mavzusida rasmlar ko‘rgazmasini o‘tkazish, mashhur ekolog olimlar, jamoat arboblari, mahalla faoliyati bilan davra suhbatlari o‘tkazish bolalar ekologik bilim va tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Seriallar”, “O‘rta Osiyo qorixonalari” kino-filmi va o‘quv filmlarini namoyish etish, respublika botanik bog‘i va hayvonot bog‘iga sayohatlar tashkil etish katta yoshdagi bolalar uchun atrof-muhit bilan tanishish imkoniyatlarini yaratadi. Bizning tajriba-sinov ishlarmizda maktabgacha ta’lim muassasalarida tematik kechalar, adabiy-musiqiy kompozitsiyalar, ko‘rik-ko‘rgazmalar, festivallar tashkil etildi.

Navoiyning 6-24-maktabgacha ta’lim muassasalarida “Gullar bayrami”, “Tabiat inoyati”, “Qushlar bayrami”, “Qovun sayli”, “Hosil bayrami”, “Yosh tabiatsevarlar” ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi. Ushbu tadbirlar katta yoshdagi guruh bolalarida ekologik tushunchalarni shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatdi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim tarbiyachilar ekologiyaning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va axloqiy mohiyatini to‘liq tushunib yetmaydilar. O‘kilonali foydalanish yo‘llari haqida hali to‘liq tasavvurga ega emaslar. Tabiat bilan insonning uyg‘unligi haqida bilimlari yetarli darajada emas. Bazi bir tarbiyachilar esa tabiatni muhofaza qilish, uni sevish, atrof-muhitni toza saqlash, tabiatni boyitishga hissa qo‘sish kerakligi haqida tushunchaga ega bo‘lsalar ham, o‘z faoliyatlarida bu printsiplarga har doim rioya qilmaydilar. Shuning uchun, bizning tadqiqot ishlarmizda katta guruh bolalariga ekologik tushunchalarni berish, ularni axloqiy xulq-atvorga aylantirish va o‘z faoliyatlarida rioya qilishlariga alohida e’tibor qaratdik. O‘quv yili boshida har bir guruhning tarbiyaviy imkoniyatlari inobatga olingan holda, ekologik bilimlarni taqdim etishga qaratilgan mavzular aniqlanib, katta yoshdagi guruh bolalariga beriladigan ekologik g‘oyalari shakllantirildi va mashg‘ulot ishlanmalari dastur mazmuniga kiritildi. Mashg‘ulot jarayonida bolalar uchun ekologik bilimlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan mavzularni o‘rganish metodlari va shakllari ishlab chiqildi. Mashg‘ulotlarda faqatgina ekologik tushunchalarni berish bilan cheklanib qolmay, o‘rganilayotgan mavzular mazmunidan kelib chiqib, bolalarni mustaqil va ijodiy fikr yuritishga undovchi savollar va topshiriqlardan, tasviriy san’at asarlaridan foydalandi. Bolalarning fikr va mulohazalari kichik ijodiy ishlarda aniq bayon etildi. Mashg‘ulotlarda olingan bilimlarni mustaqil ravishda egallash uchun tavsiya etilgan rasmlar, ko‘rgazmalar va ularga oid o‘tkazilgan suhbatlar mustahkamlandi. Shuni ta’kidlash lozimki, ekologik tushunchalar – bu ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga doir nazariy va amaliy bilimlarni egallahdan iboratdir. Shunday ekan, tarbiyachilar har bir mashg‘ulotda beriladigan ekologik tushunchalar haqida to‘liq ma’lumotni egallashlari zarur. Bu esa, o‘z navbatida, tarbiyachilarga ekologik ta’lim jarayonini samarali o‘tkazish imkonini beradi.

1. Ekologik madaniyat — tabiatning asl holatini saqlash va muhofaza qilishning asosiy tamoyillarini bilish.
2. Tabiat qonuniyatlarini va tabiatga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishning asosiy shartlarini anglash.
3. Tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish tushunchasiga ega bo‘lish va boshqalar.

Ushbu jarayon natijasida maktabgacha ta’lim muassasalarining tarbiyachilarida ekologik ong shakllanadi. Atrof-muhitni anglash darjasи rivojlanadi, bu esa dunyo haqidagi ob’ektiv bilimlarni egallash, unga to‘g‘ri munosabatlar bildirish, tahlil qilish va imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Darhaqiqat, ekologik ong orqali ekologik bilimlar tarbiyaning kundalik faoliyatida mustahkamlanadi. Ekologiyaga

nisbatan etik va axloqiy qoidalar rivojlanadi. Bunda tarbiyachining turli ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy munosabatlarining ekologik mazmunini faoliyatiga singdirish zarur bo‘ladi. Ekologik ong ekologik madaniyatning asosini tashkil etadi. Ekologik ongi shakllantirishda umuman, ijtimoiy ongning qonun-qoidalariga asoslaniladi. Inson tabiat qonunlarini, biosferaning ichki murakkab bog‘lanishlarini, jamiyatning tabiatga ta’sirini anglamasdan, uni o‘z ongida idrok etmasdan, tabiatni muhofaza qilish va undan samarali foydalanish yo‘llarini bilmaydi. Ekologik ong tarbiyachining o‘zini anglashiga, o‘z faoliyatiga va bola shaxsiga ongli munosabatda bo‘lishini ta’minlaydi. Tabiatda, vatanning moddiy va ma’naviy boyliklariga nisbatan axloqiy munosabatni tarbiyalay olmagan inson ekologiyaga ongli munosabatda bo‘la olmaydi. Ekologik madaniyat — bu tabiatni muhofaza qilish bilan moddiy ishlab chiqarish o‘rtasidagi zidiyatlarning asosiy mohiyatini tushunish, yangi ekologik texnologiyalarni qo‘llash demakdir. Ekologik madaniyatli inson his-tuyg‘ularini, tabiat hodisalariga va ob’ektiv dunyoga nisbatan munosabatlarini ko‘rsatish bilan birga, tabiat go‘zalliklarini ko‘ra biladi va his qiladi. Inson tabiatdan olingan aniq bilimlarga ega bo‘lganida va tabiat hodisalarini chuqur estetik hissiyot bilan anglaganida, u tabiat bilan ijobiy munosabatga kirishib, uni yanada go‘zalroq qilishga intiladi. Tabiatga mehr-muhabbat, uni tushunish asosida uning go‘zalliklarini anglash va tabiat bilan uyg‘unlikda bo‘lish jarayoni boshlanadi. Ana shu paytda tabiat bilan bo‘lgan munosabat shunday darajaga yetadiki, u inson shaxsiyatining madaniyatli va muhim belgisiga aylanadi. Ekologik etika — ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik etika, bu tabiat tomonidan yaratilgan va asrlar davomida shakllangan tabiiy boyliklarni asrab-avaylash, ularni ko‘paytirish, ularning qiymatini anglashdir. Ona tabiatni, atrof-muhitni kuzatish, uni muhofaza qilishda bo‘lgan intilish, faoliyat va qat’iy ishontirishdir. Ushbu jarayon, insonning ekologiya bo‘yicha olgan barcha bilimlarini chuqur idrok etib, etika darajasiga ko‘tarilishida, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali bo‘ladi. Ekologik madaniyatni shakllantirish malakasi, zaruriy bilim va tajriba egallashni talab qiladi. Bu bilimlarga ega bo‘lgan tarbiyachilar, maktabgacha ta’lim muassasalarida katta guruh bolalari bilan mashg‘ulot o‘tkazish jarayonida ekologik tarbiya ishlarini maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishlari kerak. Bunda avvalo, bolalarga tabiat va atrof-muhitning turli ob’ektlari haqida tushunchalar berish, katta yoshdagি bolalar va o‘smirlar fe’l-atvorini, boshqalarining xulqini tahlil qilish zarur. Ekologik tushunchalarni shakllantirish borasida aniq tadbirlar belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Obodonlashtirish, daraxtlar ekish va ularni nazorat qilish, qushlar va hayvonlar uchun uyalar va inlar qurish, buloq, kanal va ariklarni axlat va chiqindilardan tozalash, tuman hududiga yaqin joylashgan qishloq yoki shahar atrofida ekologik faoliyatlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bunday ishlar natijasida bolalarda tabiat bilan bog‘liq ekologik, huquqiy, axloqiy va estetik qarashlar

shakllanadi. Ular insonning tabiatdagi o‘rni, ona shahri yoki qishlog‘i uchun tabiatni muhofaza qilish faoliyatining ahamiyati, yer, havo, suv va daryolarni toza saqlash masalalarini hal qilishning hayotiy zarurligi haqida tushunchalar hosil bo‘ladi. Bolalarning tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan amaliy faoliyati, ularning individual ekologik ongi shakllanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi. O‘zbekistonda ekologik ta’lim va tarbiya masalalari “Uchinchi mingyillikning bolasi” dasturiga ham kiritilgan. Ushbu muhim masalani yanada takomillashtirishda maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarda tabiatshunoslik, biologiya, geografiya va boshqa fanlardan dastlabki bilimlarni shakllantirish lozim.

Tarbiyachi o‘z ishini shunday tashkil etishi kerakki, u bolalar uchun ibrat bo‘lsin. Tarbiyachi bolalar bilimi yangi tushunchalar bilan boyitib, o‘rgatilayotgan materiallarni tushuntirish shaklini murakkablashtirgan holda ekologik tarbiyaga kengroq yondoshishi zarur. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha amaliy faoliyatlarni o‘z ichiga olgan holda ekologik tarbiyaga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Misol uchun, xona o‘simliklarini parvarishlash, bog‘cha hovlisini tozalash, obodonlashtirish, bog‘larni parvarish qilish kabi ishlar bilan shug‘ullanishlari mumkin. Bolalar uchun shahar va qishloqlardagi ta’lim muassasalarini obodonlashtirish, ekilgan daraxtlarni parvarish qilish, obodonlashtirish ishlarida ishtirok etish, tabiatni himoya qilish kabi faoliyatlar ekologik tushunchalarning amaliy ifodasini tashkil etadi. Inson va tabiat o‘rtasidagi haqiqiy muvofiq shakllar faqat tabiat va jamiyatga nisbatan g’amxo’rlik ko’rsatiladigan jamiyatlarda mavjud bo’lishi mumkin. Bunday jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiatni muhofaza qilish maqsadlari o‘rtasida ziddiyat bo’lmasligi kerak. Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun kurashish, mutlaqo, mustaqil respublikamizda har bir bola uchun vazifa bo’lishi zarur. Shu bilan birga, bolalarning ekologik tushunchalarini shakllantirish nihoyatda muhimdir. Chunki yosh bolalarning tabiat bilan muloqoti ularning axloqiy sifatlarini rivojlantiradi. Bolalar tabiat bilan muloqot qilish orqali uning qonunlari, qadriyatları va go’zalligi haqida bilimga ega bo‘ladi. Buning natijasida ular tabiatga nisbatan mehr-oqibat, hamdardlik, yaxshilikka muhabbat, yovuzlikka qarshi kurashish kabi fazilatlarni o‘zlashtiradi. Aslida, bolalar har bir sohada kattalardan ibrat olishadi. Katta yoshdagи kishilarning ijobiy xatti-harakatlari va ibratli so’zlari, tabiatga nisbatan to’g’ri munosabatda bo’lish ularning o‘rgatishlari bolalar uchun namuna bo‘ladi. Shu bois, tarbiyachilar bolalarga hayvonlarni boqish, ko’paytirish, dorivor o’simliklarni yig’ish, atrof-muhitni va ish joylarini toza saqlash kabi masalalarda namuna bo’lishlari zarur. Bolalar tabiatning sirlarini tobora chuqurroq o‘rganib, ekologik tushunchalarini kengaytirish orqali tirik mavjudotlarga bo‘lgan qiziqish va e’tibor ortadi. Tabiatning tabiiy go’zal shakllari va turlari haqidagi tasavvurlarini yanada boyitadi. Shunday qilib, tarbiyachi har bir mashg‘ulotda katta yoshdagи guruh bolalariga ekologik tushunchalarni shakllantirishni

rejalashtirishi, shu bilan birga, asosiy tushunchalar va g‘oyalarni aniqlashi kerak. Mashg‘ulotlarni tashkil etishda metod va vositalarni tanlash, bolalarning qanday darajada tushunishini hisobga olish va natijalarni aniqlash lozim.

Shu bilan birga, ekologik tushunchalarni shakllantirish imkoniyatlarini o‘rganish va bolalar bilan tabiatni muhofaza qilishning mohiyatini tushuntirish, tabiat bilan munosabatda bo‘lishning uyg‘unligini anglash, tabiatni boyitishga hissa qo‘sish, undan oqilona foydalanish va o‘z faoliyatida bu printsiplarga rioya qilish kabi maqsadlarni amalga oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tilyabova N. «Maktabgacha katta guruh bolalarida insonparvarlik his-tuyqularini tarbiyalash» risola. – I.: Fan, 1994.
2. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Ikkinci qism. T.: Ukituvchi, 1992.
3. Raximkulova M.B. «Boshlanich sinf ukuvchitarini darodan tankari mashkulotlarda ekologik kadriyatlar asosida tarbiyalas», ped. fannom. angoref. -T.: 2000.
4. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Birinchi qism. T.: - Ukituvchi, 1991.